



RUS VA INGLIZ ANTROPONIMIYASIDA GENDER XUSUSIYATLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Jurakhanova Surayyo Abduakhatkhanovna,

Andijon davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1717>

MAQOLA HAQIDA/О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 16-iyun 2026-yil

Tasdiqlandi: 18-iyun 2026-yil

Jurnal soni: 18-C

Maqola raqami: 7

**KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА**

antroponimiya, lingvokulturologiya, rus tili, ingliz tili, shaxs nomlari, uniseks ismlar, gender stereotipi, madaniy kod, nominatsiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarining lingvokulturologik ifodalanishi tahlil qilinadi. Shaxs nomlari xalqning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari, ijtimoiy qadriyatlarini, gender stereotiplari va madaniy identifikatsiyasini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida o'rganiladi. Tadqiqotda rus va ingliz tillaridagi erkak va ayol ismlarining etimologik manbalari, semantik tuzilishi, madaniy ramziyligi, nominativ funksiyasi hamda genderga oid ijtimoiy-madaniy tasavvurlar bilan bog'liqligi yoritiladi. Shuningdek, maqolada an'anaviy va zamonaviy ism tanlash tendensiyalari, uniseks ismlar, diniy va tarixiy omillar, shuningdek, ommaviy madaniyat ta'sirida yuzaga kelayotgan yangi antroponimik jarayonlar ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari rus va ingliz antroponimiyasida gender belgilarining nafaqat grammatik yoki formal ko'rsatkichlar, balki milliy madaniyat, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ong bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 16 June 2026

Approved: 18 June 2026

Volume: 18-C

Paper number: 7

KEYWORDS

antroponymy, linguoculturology, Russian language, English language, personal names, unisex names, gender stereotype, cultural code, nomination

ANNOTATION

This article examines gender features in Russian and English anthroponymy from a linguocultural perspective. Personal names are analyzed as significant linguistic units that reflect historical memory, religious beliefs, social values, gender stereotypes and cultural identity. The study focuses on the etymological sources, semantic structure, cultural symbolism and nominative functions of male and female names in Russian and English, as well as their connection with sociocultural perceptions of masculinity and femininity. Special attention is paid to traditional and contemporary naming trends, unisex names, religious and historical factors, and the influence of popular culture on the development of anthroponymic systems. The findings indicate that gender markers in Russian and English anthroponymy are associated not only with grammatical or formal features, but also with national culture, value systems and social consciousness.

Kirish. Antroponimlar har bir xalqning til tizimida alohida o'rin tutuvchi, shaxsni nomlash, ajratish va ijtimoiy-madaniy jihatdan identifikatsiya qilishga xizmat qiluvchi muhim birliklardir. Inson ismi nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki xalqning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari, estetik didi, ijtimoiy qadriyatlarini hamda genderga oid tasavvurlarini ham o'zida mujassam etadi. Shu sababli antroponimlarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish til va madaniyat, shaxs va jamiyat, ism va identifikatsiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

Rus va ingliz antroponimik tizimlari uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan bo'lib, ularning har ikkisinde gender belgilari muhim ahamiyat kasb etadi. Rus tilida erkak va ayol ismlari ko'pincha fonetik, morfologik va grammatik belgilar orqali farqlanadi. Masalan, **Александр – Александра, Евгений – Евгения, Валентин – Валентина** kabi juftliklarda jins farqi maxsus qo'shimcha va shakli o'zgarishlar orqali ifodalanadi. Ingliz tilida esa gender farqlanishi ko'proq semantik, tarixiy va ijtimoiy-madaniy omillar asosida namoyon bo'ladi. Masalan, **John, William, Edward** kabi ismlar an'anaviy erkak ismlari sifatida, **Mary, Elizabeth, Victoria** esa ayol ismlari sifatida shakllangan bo'lsa, **Taylor, Jordan, Alex, Morgan** kabi ismlar zamonaviy davrda uniseks xarakter kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv, madaniyatlararo muloqot, gender tengligi g'oyalari va ommaviy madaniyat ta'sirida shaxs nomlari tizimida sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. An'anaviy erkak va ayol ismlari bilan bir qatorda, gender jihatdan neytral yoki ikki jins vakillariga ham qo'llanadigan ismlar kengayib bermoqda. Bu holat, ayniqsa, ingliz antroponimiyasida yaqqol kuzatiladi. Rus antroponimiyasida esa grammatik va madaniy an'anaviylik kuchliroq saqlanib qolgan bo'lsa-da, zamonaviy ism tanlash jarayonida xorijiy ismlar, qisqartma shakllar va madaniy moda ta'siri sezilmokda.

Lingvokulturologik yondashuv rus va ingliz tillaridagi antroponimlarni faqat til birliklari sifatida emas, balki madaniy kod, gender stereotipi va ijtimoiy ong mahsulati sifatida tahlil qilishga imkon beradi. Chunki ism tanlashda ota-onalarning estetik qarashlari, diniy e'tiqodi, tarixiy xotirasi, oilaviy an'analari, shuningdek, jamiyatda erkaklik va ayollikka oid shakllangan tasavvurlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, rus madaniyatida **Вера, Надежда, Любовь, София** kabi ayol ismlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog'lansa, ingliz madaniyatida **Grace, Faith, Hope, Rose, Lily** kabi ismlar ayollik, go'zallik, poklik va diniy-ma'naviy ma'nolar bilan assotsiatsiyalanadi. Erkak ismlarida esa kuch, himoya, yetakchilik va

jasorat semantikasi ko'proq ko'zga tashlanadi: **Alexander, William, Richard, Edward, Владимир, Александр, Виктор** kabi ismlar bunga misol bo'la oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarining lingvokulturologik ifodalanishini tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun erkak va ayol ismlarining semantik tuzilishi, etimologik manbalari, madaniy ramziyligi, genderga oid stereotiplar bilan bog'liqligi hamda zamonaviy uniseks ismlar fenomeni o'rganiladi. Tadqiqot rus va ingliz antroponimik tizimlarida gender belgilarining nafaqat formal yoki grammatik xususiyatlar, balki milliy madaniyat, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy tafakkur bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarini lingvokulturologik jihatdan o'rganish onomastika, sotsiolingvistika, gender lingvistikasi va madaniyatshunoslik kesishmasida olib boriladi. Antroponimlar shaxsni nomlash vositasi bo'lish bilan birga, jamiyatning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari, gender stereotiplari va ijtimoiy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Shu sababli shaxs ismlarini o'rganishda ularning etimologiyasi, semantikasi, ijtimoiy qo'llanishi va madaniy ramziyligini birgalikda tahlil qilish zarur.

A.V. Superanskaya "Общая теория имени собственного" asarida atqli otlarni til tizimining alohida birligi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, atqli otning asosiy vazifasi predmet yoki shaxsni individuallashtirish va identifikatsiya qilishdan iborat bo'lib, antroponimlar onomastik makonning muhim qismini tashkil etadi [1]. Bu qarash rus antroponimiyasida gender xususiyatlarini tahlil qilish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki rus tilida ko'plab ismlar jinsga ko'ra morfologik jihatdan ajralib turadi: **Александр – Александра, Евгений – Евгения, Валентин – Валентина**. Demak, rus antroponimiyasida gender belgisi nafaqat madaniy, balki tilning formal-morfologik tizimi orqali ham ifodalanadi.

V.A. Nikonov "Имя и общество" asarida shaxs ismlarini jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy muhit va tarixiy davr bilan bog'liq holda o'rganadi. Olimning yondashuviga ko'ra, ism tanlash jarayoni tasodifiy emas, balki muayyan davrning ijtimoiy didi, madaniy qadriyatlarini va jamiyatdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq [2]. Ushbu fikr rus va ingliz antroponimiyasida gender belgilarini tahlil qilishda muhimdir. Masalan, rus madaniyatida **Вера, Надежда, Любовь, София** kabi ayol ismlari ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog'lansa, **Виктор, Александр,**

Владимир kabi erkak ismlari kuch, g'alaba, himoya va yetakchilik semantikasi bilan assotsiatsiyalanadi.

Ingliz antroponimiyasini o'rganishda Patrick Hanks, Kate Hardcastle va Flavia Hodges tomonidan tuzilgan "A Dictionary of First Names" muhim manbalardan biridir. Ushbu lug'atda ingliz tilida keng qo'llanadigan 6000 dan ortiq ismlarning kelib chiqishi, ma'nosi, tarixiy shakllanishi, mashhurlik darajasi va mashhur tarixiy yoki badiiy tashuvchilari haqida ma'lumot beriladi [3]. Mazkur manba ingliz ismlaridagi gender xususiyatlarini aniqlashda katta ahamiyatga ega. Masalan, **William, Edward, Richard, George** an'anaviy erkak ismlari sifatida, **Mary, Elizabeth, Victoria, Catherine** esa an'anaviy ayol ismlari sifatida shakllangan. Shu bilan birga, zamonaviy ingliz antroponimiyasida **Taylor, Jordan, Morgan, Alex, Casey** kabi uniseks ismlarning kengayib borayotgani gender kategoriyasining ijtimoiy-madaniy jihatdan dinamik xarakterga ega ekanini ko'rsatadi.

Stanley Lieberman va Eleanor O. Bell "Children's First Names: An Empirical Study of Social Taste" nomli tadqiqotida AQShda 1973–1985-yillar oralig'idagi tug'ilish ma'lumotlari asosida ism tanlash jarayonini empirik tahlil qilgan. Mualliflar ism tanlash ota-onalarning shaxsiy xohishi ko'rinishida namoyon bo'lsa-da, aslida u ijtimoiy did, ta'lim darajasi, irqiy-etnik mansublik va gender rollari haqidagi stereotiplar bilan bog'liqligini ko'rsatadi [4]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ism tanlashdagi gender farqlari jamiyatda erkaklik va ayollikka oid uzoq yillik stereotiplarning ta'sirida shakllanadi. Bu fikr ingliz antroponimiyasida ayol ismlarining ko'proq estetik, yumshoqlik, nafislik va emotsional qadriyatlar bilan, erkak ismlarining esa kuch, mustaqillik va ijtimoiy mavqe bilan bog'lanishini izohlashga yordam beradi.

Richard D. Alfordning "Naming and Identity: A Cross-Cultural Study of Personal Naming Practices" asari shaxs nomlarini madaniyatlararo kontekstda o'rganishga bag'ishlangan muhim tadqiqotlardan biridir. Muallif turli xalqlardagi nom berish amaliyotlarini tahlil qilib, ism shaxsiy va ijtimoiy identitetni shakllantirishda muhim vosita ekanini ta'kidlaydi [5]. Alfordning qarashlari rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarini faqat grammatik yoki etimologik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy identifikatsiya va madaniy tasnif mexanizmi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Masalan, ingliz tilidagi **Grace, Faith, Hope, Rose, Lily** kabi ayol ismlari diniy-ma'naviy, estetik va tabiat bilan bog'liq tasavvurlarni ifodalasa, **Richard, William, Edward, Henry** kabi erkak ismlari tarixiy hokimiyat, meros va ijtimoiy mavqe bilan bog'liq madaniy assotsiatsiyalarni yuzaga keltiradi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlari ko'p qatlamli lingvokulturologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Rus antroponimiyasida gender belgisi ko'pincha morfologik shakllanish, pravoslav an'anasi va tarixiy-madaniy assotsiatsiyalar orqali ifodalansa, ingliz antroponimiyasida gender ko'proq tarixiy qo'llanish, ijtimoiy did, ommaviy madaniyat va uniseks ismlar dinamikasi orqali namoyon bo'ladi. Demak, shaxs ismlari gender identifikatsiyasi, milliy qadriyatlar va madaniy xotirani ifodalovchi muhim til birliklari sifatida tahlil qilinishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda asosiy metodologik yondashuv sifatida qiyosiy-lingvokulturologik metod tanlandi. Ushbu metod rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarining til va madaniyat bilan bog'liq jihatlarini aniqlash, erkak va ayol ismlarining semantik, etimologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini o'zaro taqqoslash imkonini beradi.

Tadqiqot materiali sifatida rus va ingliz tillarida keng qo'llanadigan erkak, ayol hamda uniseks xarakterdagi shaxs ismlari tanlab olindi. Jumladan, rus tilidagi **Александр, Виктор, Владимир, Иван, Николай, Мария, Анна, София, Вера, Надежда, Любовь**, ingliz tilidagi **William, Edward, Richard, John, Alexander, Mary, Elizabeth, Victoria, Grace, Faith, Hope**, shuningdek, zamonaviy ingliz antroponimiyasida uchraydigan **Taylor, Jordan, Morgan, Alex, Casey** kabi ismlar tahlilga jalb qilindi.

Tadqiqot jarayonida antroponimlar bir necha mezon asosida o'rganildi: jinsga oid formal belgilar, ismning etimologik manbasi, semantik mazmuni, madaniy assotsiatsiyasi, diniy yoki tarixiy motivatsiyasi hamda zamonaviy qo'llanish tendensiyalari. Rus antroponimiyasida gender farqlanishi ko'pincha morfologik shakllar orqali namoyon bo'lishi hisobga olindi. Masalan, **Александр – Александра, Евгений – Евгения, Валентин – Валентина** kabi juftliklarda jins belgisi ismning shakliy o'zgarishi orqali ifodalangani. Ingliz antroponimiyasida esa gender xususiyatlari ko'proq tarixiy qo'llanish, semantik assotsiatsiya va ijtimoiy an'ana asosida aniqlanadi.

Qiyosiy-lingvokulturologik metod asosida, avvalo, rus va ingliz tillaridagi erkak va ayol ismlari semantik guruhlariga ajratildi. Bunda kuch, jasorat, yetakchilik, g'alaba, hokimiyat kabi ma'nolarni ifodalovchi erkak ismlari hamda go'zallik, mehr, poklik, e'tiqod, umid va nafislik bilan bog'liq ayol ismlari alohida tahlil qilindi. Keyingi bosqichda diniy va tarixiy asosga ega bo'lgan antroponimlar o'rganilib, rus tilida pravoslav-

xristian an'anasi, ingliz tilida esa bibliyaviy, german, lotin va yunon manbalarining ta'siri aniqlashtirildi.

Metodning muhim jihati shundaki, unda antroponimlar faqat til birliklari sifatida emas, balki madaniy kod va gender identifikatsiyasi vositasi sifatida tahlil qilindi. Shu asosda rus va ingliz antroponimiyasida erkaklik va ayollik haqidagi ijtimoiy tasavvurlar, gender stereotiplari, milliy qadriyatlar va zamonaviy ism tanlash tendensiyalari o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi.

Ushbu metodologik yondashuv tadqiqotda rus va ingliz antroponimik tizimlarida gender xususiyatlarining umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Natijada shaxs ismlarining nafaqat nominativ, balki madaniy-informatsion, identifikatsion va aksiologik funksiyalari ham yoritiladi.

Natijalar. Rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarini qiyosiy-lingvokulturologik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, har ikki tilda shaxs ismlari jinsni ifodalash, ijtimoiy identifikatsiya qilish va madaniy qadriyatlarini aks ettirishda muhim vazifa bajaradi. Erkak va ayol ismlari faqat grammatik yoki fonetik jihatdan emas, balki tarixiy, diniy, semantik va madaniy assotsiatsiyalar orqali ham farqlanadi. Tahlil jarayonida rus va ingliz tillaridagi ismlar erkaklik, ayollik, diniy-ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy mavqe, go'zallik, kuch, jasorat va zamonaviy gender neytralligi kabi mezonlar asosida o'rganildi.

Birinchidan, rus antroponimiyasida gender farqlanishi ko'pincha ismning morfologik shakli orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, **Александр – Александра, Евгений – Евгения, Валентин – Валентина, Виктор – Виктория** kabi juftliklarda erkak va ayol ismlari bir ildizdan hosil bo'lsa-da, jinsga oid farq maxsus shakliy o'zgarish orqali ifodalangani. Bu holat rus tilida gender kategoriyasining grammatik va madaniy jihatdan mustahkam tizimga ega ekanini ko'rsatadi. Bunday ismlar orqali shaxsning jinsi til birliklarining tashqi shaklidan ham anglashiladi.

Ingliz antroponimiyasida esa gender farqlanishi rus tilidagidek doimiy morfologik ko'rsatkichlarga ega emas. Masalan, **John, William, Edward, Richard, George** kabi ismlar an'anaviy erkak ismlari sifatida qo'llansa, **Mary, Elizabeth, Victoria, Catherine, Anne** kabi ismlar ayol ismlari sifatida tarixiy-madaniy an'ana orqali mustahkamlangan. Ingliz tilida ismning jinsga mansubligi ko'proq tarixiy qo'llanish, diniy manba, ijtimoiy tajriba va madaniy assotsiatsiya orqali belgilangani. Shu sababli ingliz antroponimiyasida gender belgisi ko'proq ijtimoiy-madaniy xarakterga ega.

Ikkinchidan, rus va ingliz tillarida erkak ismlari ko'pincha kuch, jasorat, g'alaba, himoya, hokimiyat va yetakchilik semantikasi bilan bog'lanadi. Rus tilidagi **Александр** ismi "himoyachi", **Виктор** – "g'olib", **Владимир** – "dunyo/mamlakatni boshqaruvchi" yoki "tinchlikka egalik qiluvchi", **Лев** – kuch va jasorat ramzi sifatida talqin qilinadi. Bu ismlar rus madaniyatida erkaklik haqidagi ijtimoiy tasavvurlar, ya'ni himoyachilik, matonat, kuch va yetakchilik bilan bog'liq qadriyatlarini aks ettiradi.

Ingliz tilida ham erkak ismlarida shunga o'xshash semantik yo'nalish kuzatiladi. Masalan, **William** ismi german manbalariga borib taqalib, "iroda" va "himoya" ma'nolari bilan bog'lanadi; **Richard** – "kuchli hukmdor", **Edward** – "boylikni himoya qiluvchi", **Henry** – "uy/mulhukmdori", **Alexander** – "odamlarni himoya qiluvchi" ma'nolarini bildiradi. Bu misollar ingliz madaniyatida erkak ismlari ko'pincha ijtimoiy mavqe, hokimiyat, himoya va mas'uliyat tushunchalari bilan bog'langanini ko'rsatadi.

Uchinchidan, ayol ismlari tahlilida rus va ingliz antroponimiyasida go'zallik, e'tiqod, mehr, poklik, umid va ma'naviylik semantikasi muhim o'rin tutishi aniqlandi. Rus tilidagi **Вера, Надежда, Любовь** ismlari bevosita diniy-ma'naviy va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. **София** ismi "donolik" ma'nosi bilan bog'liq bo'lib, ayol obrazida aql, ma'rifat va ma'naviy yetuklikni ifodalaydi. **Светлана** ismi esa "yorug'lik", "poklik", "nur" kabi madaniy assotsiatsiyalarni uyg'otadi.

Ingliz tilida ham ayol ismlarida diniy, estetik va hissiy qadriyatlar kuchli ifodalangani. Masalan, **Grace** – "ilohiy marhamat", **Faith** – "e'tiqod", **Hope** – "umid", **Charity** – "mehr-shafqat", **Rose, Lily, Daisy** kabi gul nomlaridan hosil bo'lgan ismlar esa go'zallik, noziklik, tabiat va ayollik timsollari bilan bog'liq. Ushbu ismlar ingliz madaniyatida ayol obrazining ma'naviylik, nafislik va estetik go'zallik bilan bog'lanishini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, rus antroponimiyasida ayol ismlarining ko'plari erkak ismlaridan morfologik yo'l bilan hosil qilinishi kuzatiladi. Masalan, **Александр – Александра, Евгений – Евгения, Валерий – Валерия, Василий – Василиса, Павел – Павла** kabi shakllar jinsiy farqlanishning til tizimida maxsus qo'shimchalar orqali ifodalaniшинi ko'rsatadi. Bu hodisa rus tilining grammatik jins kategoriyasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, antroponimlarda ham erkak va ayol shakllari o'rtasida morfologik munosabat mavjudligini tasdiqlaydi.

Ingliz tilida bunday morfologik juftliklar kamroq uchraydi, biroq ayrim tarixiy juftliklar mavjud. Masalan, **Paul – Paula, George – Georgina, Joseph – Josephine, Henry – Henrietta, Charles – Charlotte** kabi ismlarda ayol shakli maxsus qo'shimcha yoki fonetik o'zgarish yordamida hosil qilingan. Ammo zamonaviy ingliz antroponimiyasida ismning gender mansubligi

ko'pincha alohida tarixiy shakl sifatida qabul qilinadi, ya'ni erkak va ayol ismlari har doim ham grammatik juftlik sifatida anglanmaydi.

Beshinchidan, ingliz antroponimiyasida uniseks ismlarning kengayishi zamonaviy gender tendensiyalarining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Taylor, Jordan, Morgan, Alex, Casey, Jamie, Riley, Cameron, Avery, Harper kabi ismlar hozirgi ingliz tilida erkaklarga ham, ayollarga ham berilishi mumkin. Bunday ismlar gender neytralligi, individual tanlov erkinligi va zamonaviy ijtimoiy qarashlarning antroponimik tizimga ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, ingliz tilida familiyadan ismga aylangan Taylor, Morgan, Harper kabi birliklar gender jihatdan neytral nomlash tendensiyasini kuchaytirgan.

Rus antroponimiyasida esa uniseks ismlar ingliz tilidagiga nisbatan ancha kam uchraydi. Rus tilida ismning grammatik jins bilan bog'liqligi kuchli bo'lgani sababli aksariyat shaxs ismlari erkak yoki ayol shaklida qat'iy farqlanadi. Masalan, Иван, Сергей, Николай, Дмитрий erkak ismlari, Мария, Анна, Екатерина, Ольга ayol ismlari sifatida barqaror qabul qilinadi. Biroq ayrim qisqartma va norasmiy shakllar, masalan, Саша, Женя, Валя erkak va ayol ismlariga nisbatan ishlatilishi mumkin:

Александр/Александра – Саша, Евгений/Евгения – Женя, Валентин/Валентина – Валя. Shunga qaramay, bu shakllar mustaqil uniseks ism sifatida emas, ko'proq qisqartma yoki erkaklik shakli sifatida qo'llanadi.

Oltinchidan, diniy omil har ikki antroponimik tizimda gender xususiyatlarining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Rus antroponimiyasida pravoslav-xristian an'anasi muhim o'rin egallaydi. Мария, Анна, Елизавета, Екатерина, Николай, Петр, Павел, Иван kabi ismlar diniy tarix, avliyolar nomi va cherkov kalendari bilan bog'liq. Bu ismlarda gender farqi diniy-madaniy meros bilan mustahkamlangan.

Ingliz antroponimiyasida esa Bibliya, lotin, yunon, german va norman-fransuz manbalari muhim rol o'ynaydi. Mary, Elizabeth, Sarah, Rebecca, John, Matthew, Luke, Peter, Paul kabi ismlar Bibliya an'anasi orqali keng tarqalgan. Shu bilan birga, William, Richard, Henry, Edward kabi german va norman davri ismlari ingliz tarixiy xotirasi, qirolik an'analari va ijtimoiy mavqe bilan bog'liq. Demak, ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlari diniy va tarixiy qatlamlarning uyg'unligi orqali shakllangan.

1-jadval

Quyidagi jadval rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarining asosiy ko'rinishlarini umumlashtiradi:

| Tahlil mezonlari | Rus antroponimiyasi | Ingliz antroponimiyasi | Lingvokulturologik natija |
|--|---|---|--|
| Erkak ismlarida kuch va himoya semantikasi | Александр, Виктор, Владимир, Лев | William, Richard, Edward, Alexander | Erkaklik kuch, himoya, yetakchilik va ijtimoiy mavqe bilan bog'lanadi |
| Ayol ismlarida ma'naviy-estetik semantika | Вера, Надежда, Любовь, София, Светлана | Grace, Faith, Hope, Rose, Lily | Ayollik e'tiqod, go'zallik, poklik, nafislik va ma'naviylik bilan bog'lanadi |
| Morfologik gender juftliklari | Александр – Александра, Евгений – Евгения, Валентин – Валентина | Paul – Paula, Joseph – Josephine, George – Georgina | Rus tilida jins ko'rsatkichi morfologik jihatdan faolroq |
| Diniy omil | Мария, Анна, Николай, Петр, Павел, Иван | Mary, Elizabeth, John, Peter, Paul, Sarah | Har ikki tizimda diniy manbalar genderga oid nomlash an'analarini mustahkamlagan |
| Uniseks ismlar | Саша, Женя, Валя – asosan qisqartma shaklda | Taylor, Jordan, Morgan, Alex, Casey, Riley | Ingliz tilida gender neytral ismlar mustaqil nom sifatida kengroq qo'llanadi |
| Tarixiy va ijtimoiy mavqe | Владимир, Ярослав, Владислав, Виктор | William, Henry, Edward, Victoria | Ismlar tarixiy xotira va ijtimoiy maqom belgisi sifatida namoyon bo'ladi |

Tahlillar asosida quyidagi natijalar aniqlandi. Birinchidan, rus antroponimiyasida gender xususiyatlari ko'proq morfologik va grammatik shakllar orqali ifodalangan. Erkak va ayol ismlari o'rtasidagi formal farq ko'pincha ismning oxiri, qo'shimchasi yoki fonetik tuzilishida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, ingliz antroponimiyasida gender belgisi asosan tarixiy qo'llanish, diniy manba, ijtimoiy an'ana va madaniy assotsiatsiyalar orqali belgilanadi. Uchinchidan, ingliz tilida uniseks ismlarning keng tarqalishi zamonaviy gender neytralligi tendensiyasini aks ettirsa, rus tilida bunday holat asosan qisqartma va norasmiy shakllar doirasida kuzatiladi.

Umuman olganda, rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlari til va madaniyatning o'zaro ta'siri natijasida shakllangan murakkab hodisa hisoblanadi. Rus antroponimiyasida jinsga oid formal-morfologik belgilar va pravoslav madaniyati muhim o'rin tutadi. Ingliz antroponimiyasida esa tarixiy manbalar, ijtimoiy did, Bibliya an'anasi, ommaviy madaniyat va uniseks nomlash jarayonlari faolroq namoyon bo'ladi. Shaxs ismlari har ikki madaniyatda ham erkaklik va ayollik haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni, milliy qadriyatlarini va madaniy identifikatsiyani ifodalovchi muhim lingvokulturologik birlik sifatida maydonga chiqadi.

Muhokama. Rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarining lingvokulturologik tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, shaxs ismlarining shakllanishi va qo'llanilishi nafaqat til tizimining ichki qonuniyatlari, balki jamiyatning madaniy, tarixiy va ijtimoiy ong darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Olingan natijalarni muhokama qilish jarayonida eng muhim jihat sifatida gender kategoriyasining turli tillarda turlicha lingvistik mexanizmlar orqali ifodalanishi namoyon bo'ladi.

Avvalo, rus antroponimiyasida genderning grammatik va morfologik jihatdan aniq belgilanganligi til tizimining jins kategoriyasiga asoslangan strukturasi bilan izohlanadi. Erkak va ayol ismlarining formal farqlanishi faqat nominativ darajada emas, balki butun morfologik tizimda o'z aksini topadi. Bu holat rus tilida genderning "til ichida kodlangan kategoriya" sifatida mustahkam o'rnatilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, rus madaniyatida pravoslav an'anasi va avliyolar kalendari ism tanlash jarayonini barqarorlashtiruvchi omil sifatida xizmat qiladi, bu esa gender stereotiplarining an'anaviy shaklda saqlanishiga yordam beradi.

Ingliz antroponimiyasida esa vaziyat nisbatan boshqacha xarakterga ega. Bu yerda gender ko'proq tarixiy an'ana va ijtimoiy-madaniy konvensiyalar asosida shakllanadi. Ismlarning erkak yoki ayollikka mansubligi grammatik belgilar bilan emas, balki kollektiv tarixiy xotira va ijtimoiy amaliyot orqali mustahkamlangan. Natijada ingliz antroponimik

tizimi nisbatan ochiq va dinamik xarakterga ega bo'lib, zamonaviy ijtimoiy o'zgarishlarga tez moslashadi.

Muhokama davomida aniqlangan yana bir muhim jihat – gender semantikasining madaniy ramziy tizim bilan bog'liqligidir. Har ikki tilda erkak ismlarining kuch, hokimiyat, himoya va yetakchilik bilan assotsiatsiyalanishi patriarxal madaniy modelning lingvistik ifodasi sifatida talqin qilinadi. Ayol ismlarida esa go'zallik, nafislik, ma'naviyat va hissiylik kabi semantik maydonlarning ustunligi gender stereotiplarining til orqali mustahkamlanishini ko'rsatadi. Bu holat tilning nafaqat aks ettiruvchi, balki stereotiplarni qayta ishlab chiqaruvchi vosita ekanini ham tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy ingliz antroponimiyasida uniseks ismlarning kengayishi gender tizimining transformatsiya jarayonida ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa ijtimoiy tenglik g'oyalari, individual tanlov erkinligi va global madaniyat ta'siri bilan bevosita bog'liq. Rus antroponimiyasida esa bunday jarayonlar nisbatan sekin kechmoqda, bu esa til tizimining va madaniy an'analarining konservativ xususiyatini ko'rsatadi.

Muhokama natijalari shuni ham ko'rsatadiki, antroponimlar faqat nominativ birlik emas, balki ijtimoiy ong, madaniy identifikatsiya va gender ideologiyasining lingvistik ifodasi hisoblanadi. Ismlar orqali jamiyatning erkaklik va ayollik haqidagi tasavvurlari avloddan avlodga uzatiladi va shu orqali madaniy davomiylik ta'minlanadi.

Umuman olganda, rus va ingliz antroponimik tizimlaridagi gender xususiyatlarini qiyosiy o'rganish til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning murakkab mexanizmlarini ochib beradi. Bu esa antroponimiyani nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy va kognitiv hodisa sifatida o'rganish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa. Rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlarining lingvokulturologik tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxs ismlari har ikki tilda ham faqat nomlash vositasi emas, balki milliy madaniyat, tarixiy xotira, diniy qarashlar, ijtimoiy qadriyatlar va gender haqidagi tasavvurlarni ifodalovchi muhim til birliklari hisoblanadi. Erkak va ayol ismlarida jamiyatning erkaklik va ayollik haqidagi an'anaviy qarashlari, estetik mezonlari, axloqiy qadriyatlar hamda ijtimoiy stereotiplari aks etadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, rus antroponimiyasida gender belgisi ko'proq formal-morfologik shakllar orqali namoyon bo'ladi. Александр – Александр, Евгений – Евгения, Валентин – Валентина, Виктор – Виктория kabi juftliklar rus tilida erkak va ayol ismlarining shakli

farqlanishi ancha barqaror ekanini ko'rsatadi. Bundan tashqari, rus antroponimiyasida pravoslav-xristian an'anasi, cherkov kalendari, tarixiy shaxslar va milliy madaniy xotira genderga oid nomlash tizimining shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ingliz antroponimiyasida esa gender xususiyatlari asosan tarixiy qo'llanish, diniy manbalar, ijtimoiy an'analar va madaniy assotsiatsiyalar orqali belgilanadi. William, Richard, Edward, Henry, Alexander kabi erkak ismlari kuch, himoya, hokimiyat va ijtimoiy mavqe bilan bog'lansa, Grace, Faith, Hope, Mary, Elizabeth, Rose, Lily kabi ayol ismlari e'tiqod, umid, go'zallik, nafislik va ma'naviylik kabi qadriyatlarni ifodalaydi. Bu holat ingliz antroponimik tizimida genderning ko'proq semantik va sotsiomadaniy asosda shakllanishini ko'rsatadi.

Tahlil davomida ingliz tilida uniseks ismlarning keng tarqalayotgani alohida e'tiborga loyiq hodisa sifatida aniqlandi. Taylor, Jordan, Morgan, Alex, Casey, Riley, Harper kabi ismlar zamonaviy ingliz antroponimiyasida gender neytralligi, individual tanlov erkinligi va ijtimoiy qarashlarning o'zgarishini aks ettiradi. Rus tilida esa Саша, Женя, Валя kabi shakllar erkak va ayolga nisbatan ishlatilishi mumkin bo'lsa-da, ular asosan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Суперанская А. В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 368 с. URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01003150754>
2. Никонов В. А. Имя и общество. – М.: Наука, 1974. – 288 с. URL: https://www.koob.ru/nikonov_v_n/imya_i_obshestvo
3. Hanks P., Hardcastle K., Hodges F. A Dictionary of First Names. – Oxford: Oxford University Press, 2006/2016. – 992 p. URL: https://books.google.com/books/about/A_Dictionary_of_First_Names.htm?id=bv9QEAAAQBAJ
4. Lieberman S., Bell E. O. Children's First Names: An Empirical Study of Social Taste // *American Journal of Sociology*. – 1992. – Vol. 98, No. 3. – P. 511–554. URL: <https://www.journals.uchicago.edu/doi/10.1086/230048>
5. Alford R. D. Naming and Identity: A Cross-Cultural Study of Personal Naming Practices. – New Haven: HRAF Press, 1988. – 320 p. URL: <https://hraf.yale.edu/ehc/documents/886>
6. Успенский Б. А. Избранные труды. Т. 2: Язык и культура. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 704 с.

qisqartma yoki norasmiy shakl sifatida qo'llanadi. Bu rus antroponimiyasida gender farqlanishi ingliz tiliga nisbatan an'anaviyroq va grammatik jihatdan barqarorroq ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, rus va ingliz antroponimiyasida gender xususiyatlari til, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlar mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Rus antroponimiyasida grammatik jins, pravoslav madaniyati va tarixiy davomiylik kuchliroq sezilsa, ingliz antroponimiyasida ijtimoiy dinamika, uniseks nomlash, ommaviy madaniyat va individual tanlov omillari faolroq namoyon bo'ladi. Shu bois antroponimlarni lingvokulturologik jihatdan o'rganish milliy madaniyatda gender identifikatsiyasi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongning til orqali qanday ifodalanishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Kelgusida ushbu mavzuni yanada kengaytirish uchun rus va ingliz badiiy adabiyotida erkak va ayol ismlarining obraz yaratishdagi roli, zamonaviy ommaviy madaniyat ta'sirida paydo bo'layotgan yangi ismlar, shuningdek, turli avlod vakillari orasida ism tanlash tendensiyalarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

7. Красных В. В. Основы психолингвистики и теории коммуникации. – М.: Гнозис, 2003. – 270 с.
8. Карасик В. И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
9. Leech G. N., Short M. H. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – 2nd ed. – London: Pearson, 2007. – 402 p.
10. Fairclough N. Language and Power. – London: Routledge, 2014. – 270 p.
11. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 499 p.
12. Van Langendonck W. Theory and Typology of Proper Names. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2007. – 400 p.
13. Плотникова Л. И. Антропонимика русского языка. – М.: Высшая школа, 2010. – 240 с.
14. Matthews P. H. Oxford Concise Dictionary of Linguistics. – Oxford: Oxford University Press, 2007. – 448 p.